



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

HAYRAT KONSEPTINING PSIXOLINGVISTIK HUSUSIYATLARI

Raxmatullayeva Dilrabo Alimjanovna

Angren universiteti o'qituvchisi
dilraborakhmatullayeva@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179516>

Annotatsiya: Mazkur maqolada hayrat hissining lingvistik va psixolingvistik xususiyatlari o'rganiladi. Inson tafakkuri va nutq faoliyatining shakllanishi murakkab psixolingvistik jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, hayrat ushbu jarayonlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Hayrat tushunchasi lug'aviy ta'riflar, sinonim va antonimlar, shuningdek, nutqiy ifodalanish shakllari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida hayratning neytral tabiati, o'tkinchiligi va boshqa emotsiyalarga o'tish xususiyatlari asosiy mezon sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: hayrat, kognitiv, psixologik, konsept, his-tuyg'u, nutq, tafakkur.

Inson tafakkuri va nutq faoliyatining shakllanishi murakkab psixolingvistik jarayonlar hisoblanadi. Psixolingvistika inson nutqi va tafakkuri qanday bog'langanini tushunishga yordam beradigan fan bo'lib, bunda til o'rganish, nutq tushunish, xotira va hissiyotlar kabi jihatlarni o'rganish orqali til va ong o'rtasidagi murakkab jarayonlarni tahlil qilinadi. Ushbu jarayonlarda his-tuyg'ular va ularning ifodalanishini o'rganilishi ham psixologlar, ham lingvistlar uchun murakkab masala hisoblanadi. Psixologiyada hissiyotlar «inson ehtiyojlariga muvofiq yoki nomuvofiq hodisalar va narsalarga bo'lgan alohida munosabat shakli» sifatida qaraladi.¹ Bu ta'rifga ko'ra, his-tuyg'ular voqelikni sub'ektiv baholash shakli bo'lib, ular inson ehtiyojlari va faoliyatining motivatsion asosi bilan chambarchas bog'liq deb hisoblanadi. Hayratlanish inson ongida kutilmagan hodisalar, yangiliklar yoki g'ayrioddiy voqealar natijasida shakllanadigan emotsional holat sifatida namoyon bo'ladi.²

Inson hayratlanganda so'z topolmay qolishi, fikrlarini izchil bayon qila olmasligi hayratning nutqiy tafakkur bilan bog'liq ekanligini bildiradi. Bu ayniqsa kuchli hayrat yoki ta'sirlanish holatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, hayratning turli shakllari mavjud bo'lib, ular insonning hissiyotlariga bog'liq holda o'zgaradi. Quyida hayratning o'zgarishiga turli misollarni ko'rib chiqamiz:

1. Inson kutilmagan yangilikni eshitganda yoki hayratlanarli hodisaga duch kelganda, u bir lahza qotib qolishi yoki hayrat ichida sukunatga cho'mishi mumkin. Bu turdagi hayrat ko'pincha vaqtinchalik bo'lib, odam hodisani anglagach, u yo

¹Smirnov, A. A. (1985). *Psychology of Emotions*. Nauka. p. 64.

²Fillmore, C. J. (1982). *Frame Semantics*. In *Linguistics in the Morning Calm* (pp. 111–137). Hanshin Publishing.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

boshqa hissiyotga o'tadi yoki yo'qoladi. Masalan: – *U go'zal tabiat manzarasini ko'rib, bir necha daqiqa hayratdan qimir etmay turdi.*

2. Ba'zan hayrat odamning harakatlari orqali namoyon bo'ladi. Misol uchun, kimdir hayratlanganida kaftini og'ziga bosishi, ko'zlarini katta ochishi yoki orqaga tisarilishi mumkin. Bunday holatlar hayrat darajasining yuqoriligini bildiradi. *“Chikning hayrati dahshatga aylandi: u katta it beshik yonida turganini, go'dak esa katta qo'li bilan uning qulog'ini mahkam ushlab olganini ko'rdi.”F. Iskander*

3. San'at, adabiyot va musiqa insonda kuchli taassurot qoldirib, hayrat uyg'otishi mumkin. Masalan, buyuk rassomlarning kartinalari yoki mashhur yozuvchilarning asarlari kishida hayrat va qoyil qolish hissini uyg'otadi. Bu turdagi hayrat odatda zavq va estetik qoniqish bilan bog'liq bo'ladi. – *Buyuk san'at asarini ko'rgach, uning hayrati cheksiz edi.*

4. Odam hayotida ba'zan oldindan rejalashtirilmagan yoki kutilmagan hodisalar sodir bo'ladi. Bunday vaziyatlarda hayrat tabiiy holatga aylanadi. Masalan, uzoq yillik do'stingizni tasodifan boshqa shaharda uchratish yoki biror kashfiyot qilish hayratlanarli bo'lishi mumkin. – *Do'stining to'satdan kelganini ko'rib, hayrati norozilikka o'zgardi.*

5. Inson aql bovar qilmaydigan yoki g'alati voqealar guvohi bo'lganda, hayratlanish tabiiydir. Masalan, jismoniy qonunlarga zid hodisalarni kuzatish, texnologik yangiliklarga duch kelish yoki noodatiy insoniy qobiliyatlarni ko'rish odamda hayrat hissini uyg'otadi. – *U mo'jizaviy ravishda o'zini boshqa zamonda ko'rib, hayrat ichida qoldi.*

6. Ba'zan inson yangi ma'lumot yoki tushunarsiz hodisaga duch kelganda hayratga tushadi. Masalan, matematik yoki ilmiy muammolar bilan shug'ullanayotgan kishi tushunarsiz formulani yoki kashfiyotni ko'rib hayratlanishi mumkin. Bu turdagi hayrat ko'pincha bilimga chanqoqlikni oshiradi. – *Murakkab matematik masalani yechishga urinib, hayrati tushunarsizlikka aylandi.*

7. Odam kundalik hayotda uchramaydigan voqealarga duch kelganda hayratlanishi mumkin. Masalan, kimsasiz cho'lda muz parchalarini uchratish yoki qushlarning noodatiy xatti-harakatlarini kuzatish kishida hayrat uyg'otadi. – *Yangi texnologiyalar bilan tanishar ekan, hayrati hayratga ulanardi.*

Hayrat kuchli hissiyotlardan biri bo'lgani uchun odamning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladigan voqealarni shakllantiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kutilmagan va hayratga soluvchi axborot miyaga chuqurroq o'rnashadi. Shu bois, reklama, ta'lim va ommaviy axborot vositalari hayratni qo'zg'atish orqali auditoriya e'tiborini tortishga harakat qiladi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Hissiyotlarni lingvistik tahlil qilishda til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni solishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Til nuqtayi nazaridan hayratni ifodalash uchun turli xil usullar qo'llanadi. Hayrat lingvistik jihatdan ko'pincha undov gaplar, so'roq gaplar va hissiy ifodalar orqali yetkaziladi. Masalan:

- *Ajabo?*
- *Yo`g`-e, shunaqa bo`ldimi?!*
- *Bu meni lol qoldirdi!*

Hayrat konsepti verballashuv jarayonida ham universal, ham o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan hissiy dunyo manzarasining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu esa hissiy konseptlarning apotsentrik yo'nalishi bilan birga, uning ilmiy tadqiqotlar doirasida o'rganilishining dolzarbligini belgilaydi. Tadqiq etilayotgan konseptning bevosita nominanti sifatida *hayrat* so'zi qaraladi. Lug'aviy ta'riflarga ko'ra, u quyidagilarni anglatadi: "kuchli darajadagi taajjub, hayronlik";³ "hayronlik, tong qolish, dovdirab, gangib qolish";⁴ "noodatiy, kutilmagan, g'alati va tushunarsiz narsadan olingan kuchli taassurot natijasida yuzaga keladigan holat".⁵

Hayratning sinonimi sifatida *ajablanmoq, hayratlanmoq, lol qolmoq, taajjubga tushmoq, qoyil qolmoq, hayron bo'lmoq* kabi fe'llar hayrat holatini aks ettiradi. Bu tushuncha «eng yuqori darajadagi hayrat»ni anglatadi, shuning uchun sinonimlar lug'atlarida lol qolishning yanada kuchli ta'sir va taassurot bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Masalan:

- *"Bunyod uyg'ondi darhol, uni lol etdi bu hol."* Hamid Olimjon.
- *"Ustaning san'atidan hayratda bo'lgan odamlar bitta tanburdan ham shunchalik ovoz chiqishiga tasanno aytishardi."* Mirmuhsin, "Sozanda"
- *"Qo'ldosh yuzida taajjub alomati paydo bo'ldi."* Husayn Shams, "Dushman"
- *Shunday to'polonchi bolaning birdaniga yuvosh bo'lib qolganini ko'rib, sinfdoshlari hayron edi.* O'tkir Hoshimov, "Qalbingga quloq sol"

Lug'aviy ta'riflar asosida biz *holat, harakat, taassurot, kutilmaganlik, g'alati holat, tushunarsizlik va noodatiylik* kabi muhim elementlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Bundan tashqari, bu ro'yxatga sinonim sifatida *lol qolish* ham kiritiladi.

– *U shunday ajoyib voqeani eshitib, lol qoldi va hech narsa deya olmadi.*

Bu jarayonda *lol qolish* hayratning affektiv holati sifatida qaraladi, ya'ni "juda kuchli, ammo qisqa muddatli his-tuyg'u bo'lib, uzoq davom etuvchi reaksiya yoki

³ Izoh.uz — O'zbek tilining izohli lug'ati, 2014–2025 <https://izoh.uz/word/hayrat>

⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildli, 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi tahrir hay'ati, E. Begmatov, Tashkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006., 5-jild

⁵ <https://www.merriam-webster.com/thesaurus/surprise>



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

butunlay harakatsizlik bilan bog'liq."⁶ Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, hayratning bunday xususiyatining asosi uning neytralligi va qisqa muddatli bo'lishidir. Ushbu hissiyotni har bir inson boshdan kechirishi mumkin bo'lsa-da, uni tavsiflash ancha murakkab.

"Bu qisman hayratning uzoq davom etmasligi bilan tushuntiriladi, biroq bundan ham muhim omil shundaki, hayrat paytida xayolimiz go'yo bo'shab qoladi, barcha fikrlash jarayonlari to'xtab qolgandek bo'ladi. Shu sababli hayrat reaksiyasi yetarlicha anglab yetilmaydi. Hayratni his qilayotganimizda, biz stimulga qanday javob berishimizni bilmaymiz; kutilmaganlik bizda noaniqlik hissini uyg'otadi."⁷

Shunday qilib, hayrat hissi – oraliq, o'tkinchi va to'liq anglanmagan tuyg'u bo'lib, u kishining ushbu tuyg'uni qandaydir yo'l bilan tavsiflash yoki aniqlashga urinishlariga sabab bo'ladi. Shu bois quyidagi kabi so'z birikmalari shakllanadi: shubhasiz hayrat, ravshan hayrat, yashirinmagan hayrat.

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki, hayrat inson ongida kutilmagan hodisalar, yangiliklar yoki noodatiy vaziyatlarga nisbatan vujudga keladigan qisqa muddatli emotsional holatdir. Uning lingvistik jihatdan ifodalanishi undov gaplar, so'roq gaplar va hissiy ifodalar orqali amalga oshiriladi. Hayratning o'ziga xosligi shundaki, u neytral holatda bo'lishi mumkin, lekin inson manfaatlariga ta'sir qilgan taqdirda, u ijobiy yoki salbiy tus olishi ehtimoli yuqori. Hayrat hissi turli xil nutqiy birikmalar va sintagmatik modellar orqali ifodalanib, uning semantik xususiyatlarini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, ushbu hissiyotning o'tkinchiligi va boshqa emotsiyalarga aylanishi ham lingvistik va psixolingvistik jihatdan qiziqarli tadqiqot obyekti sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fillmore, C. J. (1982). *Frame Semantics*. In *Linguistics in the Morning Calm* (pp. 111–137). Hanshin Publishing.
2. Izard, K. E. (2000). *Hissiyotlar psixologiyasi*. Sank-Peterburg: "Piter", 464-bet.
3. Izoh.uz — O'zbek tilining izohli lug'ati, 2014–2025. <https://izoh.uz/word/hayrat>
4. Luk, A. N. (1972). *Hissiyot va tuyg'ular*. M.: Bilim, 80-bet.
5. Merriam-Webster. (n.d.). *Thesaurus: Surprise*. <https://www.merriam-webster.com/thesaurus/surprise>
6. O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildli, 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. Tahrir hay'ati, E. Begmatov. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 5-jild.
7. Smirnov, A. A. (1985). *Psychology of Emotions*. Nauka. p. 64.

⁶ Luk A.N. Hissiyot va tuyg'ular. M.: Bilim, 1972. 80-bet.

⁷ Izard K.E. Hissiyotlar psixologiyasi. Sank Piterburg: "Piter", 2000. 464-bet.